


SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-fevral)

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1711,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,7% ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 219,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 158,7%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 1274,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 102,3%), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 217,5 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,7%) tashkil etdi.


Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahri, Urgut, Pastdarg'om va Jomboy tumanlarida qayd etildi.

*-дастлабки маълумотлар

Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 58,7% ga o'sdi va 219,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,8% ulushiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1491,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 1,8% ga o'sdi. Viloyat miqosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,2% ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2018 yil
yanvar-fevral




2019 yil
Yanvar-fevral



■ Yirik korxonalar
■ Kichik tadbirkorlik

**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Bulung'ur (99,8%), Nurobod (99,8%), Tayloq (99,8%), Narpay (99,7%), Kattaqo'rg'on (99,7%) va Qo'shrabot (99,7%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,8% ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (37,1%), Samarqand tumanida (32,0%) va Pastdarq'om tumanida (4,7%) kuzatildi.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**


	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Samarqand viloyati	219,3	158,7	1491,8	101,8
Samarqand shahri	174,8	199,3	296,8	92,9
Kattaqo'rg'on shahri	0,3	119,2	93,0	102,4
<i>Tumanlar:</i>				
Bulung'ur	0,2		106,6	101,0
Jomboy	0,2		49,4	105,6
Ishtixon	0,4		64,8	101,6
Kattaqo'rg'on	0,2		69,8	102,4
Narpay	0,2		60,5	102,0
Nurobod	0,1		63,9	101,9
Oqdaryo	0,4		50,2	102,6
Payariq	0,4		66,7	102,0
Pastdarg'om	6,0	50,3	123,2	111,2
Paxtachi	0,3		58,6	101,3
Samarqand	31,5	83,7	66,9	118,0
Urgut	4,0	6,5m	215,3	104,4
Tayloq	0,1		50,2	104,4
Qo'shrabot	0,1		55,9	102,2

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahri 27,6%, Urgut tumani 12,8%, Pastdarg'om tumani 7,5%, Bulung'ur tumani 6,2%, Samarqand tumani 5,8%, Kattaqo'rg'on shahri 5,5%, Ishtixon tumani 3,8%, Kattaqo'rg'on tumani 4,1% va Paxtachi tumani 3,4% chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida tumanlarning ulushi, (%)



2019 yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 455,2 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,6% ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-fevral oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning ayrim hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Kattaqo'rg'on shahri (1066,0 ming.so'm), Samarqand shahri (883,3 ming. so'm) va Bulung'ur tumani (590,1 ming.so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Tayloq (259,4 ming.so'm), Kattaqo'rg'on (264,7 ming.so'm) va Ishtixon (266,3 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Xudud nomi	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan,% da
Samarqand viloyati	455,2	104,6
Samarqand shahri	883,3	114,2
Kattaqo'rg'on shahri	1066,0	101,2
<i>tumanlar:</i>		
Bulung'ur	590,1	99,1
Jomboy	300,3	103,4
Ishtixon	266,3	100,0
Kattaqo'rg'on	264,7	100,6
Narpay	293,5	100,6
Nurobod	440,1	100,0
Oqdaryo	327,9	101,4
Payariq	278,2	100,6
Pastdarg'om	377,2	103,1
Paxtachi	421,3	100,0
Samarqand	404,1	102,3
Urgut	449,3	103,5
Tayloq	259,4	102,4
Qo'shrabot	442,3	100,3

2019 yilning yanvar-fevral oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,3% ni tashkil etib, 38,9 mlrd. so`mga yetdi, yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 95,5% ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

SAMARQAND VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-fevral*)


Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 687,6 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 4,9% ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, 452,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 86,2% ni tashkil etdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 65,7% ni tashkil qilmoqda. Yirik korxonalar esa, 235,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 79,7% ga o'sdi.


Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik va kichik korxonalarining ulushi, (%)

2018 yil

2019 yil



■ Yirik korxonalar
■ Kichik korxonalar



■ Yirik korxonalar
■ Kichik korxonalar

*-дастлабки маълумотлар

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-85-23
66-235-65-80